




FARG'ONA VILOYATIDAGI ARXEOLOGIK TOPILMALARNI MUZEYLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Nurmuxammadov Azizbek Avazbek o'g'li.

Namangan Davlat Universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxassisligi magistranti.

Telefon: +998937767067

azizbeknurmuxammadov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15429440>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 30-aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 16-may 2025 yil

KEY WORDS

Arxeologik topilmalar,
muzeylashtirish, Axsikent,
Mingtepa, Quva, tarixiy yodgorlik,
raqamlashtirish, ekspozitsiya,
konservatsiya, muzeyshunoslik,
madaniy meros.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati hududida joylashgan tarixiy-arxeologik yodgorliklar va ularning asosida topilgan moddiy-madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish jarayonining hozirgi holati, mavjud muammolar, zamonaviy muzeyshunoslik yondashuvlari va istiqbolli yechimlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Axsikent, Mingtepa, Quva kabi qadimiy shahar xarobalaridan topilgan arxeologik materiallar, ularning ilmiy tasnifi, restavratsiya va konservatsiya ishlari, fondlarga joylashtirish va ommaviy ekspozitsiyaga aylantirishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba, xususan, YUNESKO, ICOM kabi tashkilotlarning yondashuvlari asosida takliflar ishlab chiqilgan. Maqola Farg'ona vodiysi madaniy merosining ilmiy, amaliy va turistik salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kirish: Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi. Hududda ming yillar davomida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, siyosiy va madaniy jarayonlar natijasida ko'plab tarixiy yodgorliklar vujudga kelgan. Ayniqsa, Axsikent, Mingtepa, Quva singari arxeologik obidalar jahon ilmiy doiralarida ham e'tirof etilgan muhim manbalardandir. Ushbu qadimiy maskanlardan topilgan osori-atiqalarni saqlab qolish, tizimli tahlil qilish, ekspozitsiyalarga aylantirish va keng jamoatchilikka yetkazish orqali tarixiy xotirani asrash, yosh avlodda milliy g'urur va tarixiy tafakkurni shakllantirishga erishiladi.

Asosiy qism: Farg'ona tarixi muzeyi O'zbekiston Respublikasidagi eng keksa muzeylaridan biridir. Muzeyga ilk bor 1894-yilda Yangi Marg'ilon (Hozirgi Farg'ona shahri) shahrida o'tgan savdo ko'rgazmasi vaqtida asosa solingan. Oradan ma'lum bir vaqt o'tib, 1895-yilda Farg'ona viloyati harbiy Gubernatori tomonidan Gubernatorlik binosining, Gubernator xonasi yaqinida Farg'ona vodiysiga oid tarixiy buyumlarni saqlash uchun 2 ta xona ajratilgan. 1897-yilda muzeyning nizomi tasdiqlangan bo'lsa, 1899-yilning 26-may kuni „Farg'ona viloyat xalq muzeyi“ning (uning birinchi nomi shunday edi) tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. Bu vaqtga kelib muzeyda 2223 dona tarixiy buyum va kitoblar yig'ilgan edi.

Farg'ona viloyatida mavjud arxeologik topilmalar asosida maktab o'quvchilari uchun ekskursiyalar, interaktiv mashg'ulotlar, muzey-pedagogika darslari tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali tarixiy voqealarga, arxeologik jarayonlarga bo'lgan qiziqish oshib,

kelajakda ushbu sohada yangi tadqiqotchilar yetishib chiqishiga asos yaratiladi. Shuningdek, viloyatdagi arxeologik topilmalarni keng jamoatchilikka tanitishda OAV, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish dolzarbdir. Virtual ko'rgazmalar, videolavhalar, interaktiv ekskursiyalar orqali yoshlar, talabalar va sayyohlar orasida qiziqish uyg'otish mumkin. Bu esa tarixiy merosning saqlanishi va zamonaviy talqinda qayta kashf etilishiga xizmat qiladi.

Muzey fondlarida saqlanayotgan ayrim noyob eksponatlar (masalan, XII asrga oid sirlangan sopol idishlar, toshdan yasalgan diniy haykalchalar, buddaviy madaniyatga oid ashyolar) yillar davomida ilmiy muomalaga kiritilmagan. Bu holat esa ularning tarixiy ahamiyatini to'liq ochib berish va xalqaro ilmiy doiralarda e'tirof etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur topilmalarning pasportlash, raqamlashtirish, ilmiy maqolalarda tahlil qilinishi va ochiq kataloglarga kiritilishi zarur.

Arxeologik topilmalarni muzeylashtirishda yana bir muhim jihat – ularning ilmiy hujjatlashtirilishi va geografik xaritaga tushirilishidir. Farg'ona vodiysi bo'ylab aniqlangan 300 dan ortiq arxeologik yodgorliklarning joylashuvini raqamli xaritalash orqali nafaqat ilmiy, balki ta'limiy, ekskursiyaviy va turistik maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, Axsikent yodgorligi hududi GIS (Geographic Information Systems) texnologiyalari yordamida raqamlashtirilsa, har bir topilma koordinatalari, holati, tarixiy bosqichi aniq qayd etilishi mumkin.

Arxeologik topilmalarni muzeylashtirish – bu ularni saqlash, tadqiq qilish va ommaga yetkazishning tizimli jarayonidir. Bunda tasniflash, ilmiy hujjatlashtirish, fondga joylashtirish, restavratsiya, konservatsiya va ekspozitsiyalash asosiy bosqichlardir. Farg'ona viloyatida bu jarayon hali to'liq yo'lga qo'yilmagan bo'lib, mavjud metodik materiallar va kadrlar salohiyati talab darajasida emas.

Axsikent – qadimiy Farg'ona poytaxti sifatida arxeologlar e'tiborida. Bu yerdan topilgan sopol idishlar, tangalar, mehnat qurollari va boshqa buyumlar muzeylashtirishga muhtoj. Mingtepa – Markaziy Osiyodagi eng yirik antik shahar xarobalaridan biri bo'lib, bu yerda yirik arxeologik qazishmalar olib borilgan. Quva shahristonidan esa Budda ibodatxonasi topilgan bo'lib, uning haykaltaroshlik va diniy arxitektura yodgorliklari xalqaro e'tiborni tortmoqda.

Farg'ona viloyatidagi muzeylarda (viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Marg'ilon va Quva muzeylari) saqlanayotgan arxeologik eksponatlar fondlarda saqlanmoqda, lekin ekspozitsiyalar soni va sifati cheklangan. Zamonaviy namoyish usullari, raqamli texnologiyalar, ko'rgazmalar dizayni va ta'limiy komponent yetarli emas. Bu esa muzeylarning ilmiy va ommaviy ta'sirini kamaytiradi.

Dunyo tajribasida ochiq osmon ostidagi muzeylar (open-air museums) keng qo'llaniladi. Misrda Luksor, Gretsiyada Afina, Xitoyda Anyang shaharlarida arxeologik yodgorliklar ochiq holda saqlanadi va namoyish etiladi. Farg'ona vodiysida ham Axsikent va Mingtepa asosida shunday majmualarni yaratish mumkin. Bu nafaqat merosni asrash, balki turizm va iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

YUNESKO va ICOM tavsiyalariga ko'ra, muzeylar innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishi zarur. Bu raqamli kataloglar, 3D modellashtirish, interaktiv taqdimotlar, AR/VR vizualizatsiyalar, mobil ilovalar orqali amalga oshiriladi. Farg'ona muzeylarida bu boradagi ishlarga asos solingan bo'lsa-da, kengroq loyihalar, xususan, xalqaro grantlar asosida olib boriladigan dasturlar zarur.

Xulosa: Farg'ona viloyatidagi arxeologik yodgorliklar va topilmalarni muzeylashtirish, saqlash va targ'ib qilish borasida tizimli ishlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqolada Axsikent,

Mingtepa, Quva kabi asosiy maskanlar misolida mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilindi. Ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro tajriba, moliyalashtirish va kadrlar salohiyati bo'yicha takliflar ilgari surildi. Ushbu yondashuvlar asosida Farg'ona viloyatining tarixiy merosini jahon madaniy merosi darajasiga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuxammadov A. A. Farg'ona viloyati muzeylarining arxeologik topilmalari xaritasi. Magistrlik dissertatsiyasi. Namangan: NDU, 2025.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston – yangi hayot bosqichi. – T.: O'zbekiston, 2021.
3. UNESCO. Recommendations on the Protection of Archaeological Heritage. Paris: 2019.
4. ICOM. International Museum Code of Ethics. – Geneva: 2022.
5. Gorbunova N. G. Arxeologik muzeylar va ekspozitsiya texnologiyalari. – T.: 2010.

